



UY-JOY KOMMUNAL HIZMAT KO'RSATISH TURLARI VA ULARNING ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISHINI BELGILASH

Y.T.Qiyomov

*Xalqaro Innovatsion Universiteti
Iqtisodiyot va aniq fanlar kafedrası mudiri*

Imonova Sevinch Ilyos qizi talaba
Xayrullayev Alibek To'ychi o'g'li talaba

Annotatsiya: maqolada hududiy ko'pqavatli uy-joy kommunal xizmatlari turlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirish va bular asosida kommunal xizmati tizimining asosiy ko'rsatkichlari prognoz qilinadi va tizimning rivojlanish istiqbollari belgilanadi.

Kalit so'zlar: kommunal xizmati, energiya ta'minoti, suv ta'minoti, shovqin, elektr maydoni ta'siri, elektromagnit maydoni, ekologiya, model, monitoring, prognoz, samaradorlik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari "to'g'risida farmoni 2017 yil 18-aprelda (PF-5017-son) qabul qilingan [1]

Bu Farmonda Respublika aholisining sifatli uy-joy kommunal xizmatlari bilan qamrab olinishni tubdan yaxshilash, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida barcha tashkilotlarning o'zoro hamkorligi uyg'unlashgan texnologik zanjirini shakllantirish asosida uy-joy fondidan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, ko'p xonadonli uylarning saqlanishi talablariga rioya etilishi ustidan texnik nazoratning samarali tizimini yaratish, shuningdek, hususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarning iush sifatini oshirish va moliyaviy -iqtisodiy barqarorligini ta'minlash maqsadida qo'yilgan.

Farmonda ko'rsatilgan maqsaddan kelib chiqib, ushbularni amalga oshirish hozirgi talabga mos keladi:


-ko'p xonadonli uy -joy fondini saqlash, ulardan foydalanish va eksplutatsiya xarajatlarini aniqlash, ularni minimumlashtirish;

-uy-joy kommunal xizmati fondlari muddatini oshirish

-suv ta'minoti va kanalizatsiya obyektlari, issiqlik ta'minoti shoxobchalarni rivojlantirish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish;

-uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasiga resurs va energiya tejaydigan texnologiyalarni va metrologik uskunalarni, tejamkorlikdan kelib chiqib, energiya, yoqilg'i va boshqa resurslardan noqonuniy foydalanishni oldini oluvchi vosita va xizmatlarni tashkil etish;

-uy-joy komminal xo'jaligi obyektlarini zamonaviy hisoblash o'lchov asboblari (metrologik vositalar) bilan jihozlash;





-qurilish montaj ishlari (xizmatlar)tannarxining pasayishini ta'minlaydigan mahalliy qurilish materiallari va buyumlarini keng qo'llash;

-uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion g'oyalarni kiritish, shuningdek optimallashtirish;

-suv ta'minotini kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti metrologik xizmatlari bo'yicha ta'rif siyosatini shakllantirish;

-uy joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasining(tashkilotlarning) iqtisodiy barqarorligini saqlash mezonlarini ishlab chiqarish (bu xizmatlar samaradorligini oshirishga bog'liq);

-zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy mahsulotlar, irodaviy axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasini joriy etish;

-uy joy kommunal xizmat ko'rsatish va muhandislik kommunakatsiyalari obyektlaridan optimal foydalanish (asosiy fondlardan samarali foydalanish, xizmatlaridan tannaxrni kamaytirish, xizmat muddatlarini oshirish va shunga o'xshashlar);

-ko'p xonadonli mukammal ta'minlash uchun jamlanadigan kuchmas mulk egalariining mablag'laridan maqsadli va optimal foydalanishni tashkil etish.

Yuqorida aytilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bir qancha xizmatlarni talab etadi. Bular elektr, gaz, ichimlik, texnik va issiq suvni, elektro magnit to'lqinlari va elektr maydonlari ta'sirini , shovqin ta'sirini , ekologik holatni hamda kommunal xizmatlari doirasidan tashqarida va kommunal xo'jaligiga kiruvchi elektr energiyasi quvvati , gaz va suv bosimi hamda miqdorini nazorat qiluvchi zamonaviy o'lchov asboblariidan foydalanish xizmatlari , bu xizmatlarni, bu xizmatlarni samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalasidan biri hisoblanadi.

Bizga ma'lumki ,2017-yil, PF-5059-sonli "Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov nizomini yanada mustahkamlash , shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni chiqdi [2] va bu farmonga ko'ra yoqilg'i-energitika kompleksini modernizatsiya qilish hamda texnologik qayta jihozlash, elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida shartnoma majburiyatlariga so'zsiz rioya etishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratishning muhim shartlari belgilab berildi .

Mazkur Farmonda ko'rsatilishicha, so'ngi yillarda elektr energiyasi va tabiiy gaz ishlab chiqarish hajmini oshirish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarininbg energiya resurslariga bo'lgan ehtiyojini to'liq hamda uzluksiz ta'minlash , texnologik jihatdan va ma'naviy eskirgan infratuzilmalarni modernizatsiya qilish bo'yicha amaliy choralarini ko'rishda alohida e'tibor qaratilmagan .

Energitika resurslaridan samarali foydalanish maqsadida quyidagi muommolarni hal qilish masalasi qo'yilgan:





Hujjatlarning so'zsiz ijrosini ta'minlash, ijro hujjatlarini hamda undirilgan mablag'larning haqqoniy hisobini yuritish , ijro ishi yuritishni sansolorlik va suistemolchilik holatlarining oldini olish;

Elektr , gaz uzatish va gaz taqsimlash tarmoqlariga noqonuniy ulanish , tolon-toroj holatlarini aniqlash , bartaraf etish va oldini olish;

Energiya resurslari uchun to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishini, iste'molchilarning qarzdorligi kamaytirilishini ta'minlash;

Energiya resurslari iste'molini nazorat qilish va hisobga olishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlari, shuningdek, muqobil energiya manbalarining joriy etilishi ustidan monitoring o'tkazish;

Energiya resurslari iste'molchilarining ma'sulyati va huquqiy madaniyatini oshirish choralarini ko'rish;

Kompleks tahlil o'tkazish , tizimli muommolarni aniqlash, energiya resurslari uchun hisob-kitob qilinishini ta'minlash va majburiy ijro tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish , surishtirish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish va boshqa muommolar.

Statistik va ekspremental ma'lumotlarga ko'ra metrologik nazorati xizmatlarini baholovchi empiric bog'lanishlarni tadbiqu va uning samaradorligi bayon qilingan Suv, gaz, energiya, shovqin , elektromagnit to'lqinlari , elektr maydon ta'siri , ekologik holat va boshqa faktorlarni dinamik o'zgarishlarini o'lchash va nazorat qilish, shu tariqa kommunal zizmatlari tizimida monitoring o'tkazish karrali effektlarga olib keladi. Ishning tadbiqu sifatida ana shu qirralarda e'tibot berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash ,shuningdek ,ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni . Toshkent shahri, 29- may 2017 yi. Xalq so'zi gazetasi , 2017-yil 30-may.

2. Uy-joy kommunal hizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. . Toshkent shahri 18-aprel 2017-yil. Xalq so'zi gazetasi,2017-yil 19 aprel.

3. Yusupbekov N.R. Muhamedov B.E ,G'ulomov SH.M , Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari : Darslik -T"O'qituvchi", 1997-704 bet

4. Yusupbekov N.R , Egamberdiyev X.Z, Malikov A. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish asoslari T. TosDTY 2007 yil 237 bet

5. <http://www.ziyonet.uz>

